



SHAXS TIPOLOGIYALARI: XEYMANS - LESENN TIPOLOGIYASI VA SHELDONNING KONSTITUTSIONAL FARQLAR PSIXOLOGIYASI

Muratova Sh.

SamDTU Pedagogika-psixologiya kafedrası v.b.dosenti, p.f.d.

Tayanch so'zlar: сентиментал одам ҳам хиссиётга берилувчан, аморф, апатик, Шелдон темпераменти, кенг елка ва кўкрак қафаси, виснеротония, самототония, Хейманс – Лезенн, эмоционаллик, жўшқинлик, эҳтирослилик, асабий, ташкилотчилик-ка мойиллик, реакцияни сусайганлиги, клаустрофобия - торликдан кўрқиш.

Ключевые слова: сентиментальный человек также эмоционален, аморфен, апатичен, темперамент Шелдона, широкие плечи и грудь, виснеротония, соматотония, Хейманса-Лезенна, эмоциональность, восторженность, страстность, нервозность, склонность к организации, снижение реакции, клаустрофобия - страх узости.

Key words: a sentimental person is also emotional, amorphous, apathetic, Sheldon's temperament, broad shoulders and chest, visnerotonia, somatotonia, Heymans-Lesenne, emotionality, enthusiasm, passion, nervousness, a tendency to organize, decreased reaction, claustrophobia - fear of narrowness.

Kirish. Xeymans - Lesenn tipologiyasi. Bu tipologiya bo'yicha xarakter uchta asosiy tarkibiy qismning har xil miqdordagi to'plamidan iborat.

1. Emotsionallik (E+ yoki E- ko'rinishida belgilanadi).

Gap ayni vaziyat odamda qanday osonlik bilan emo-tsional holat (emotsiya yoki hissiyot) uyg'ota olishi haqida bormokda.

Ayrim odamlarda har kuni bo'lib turadigan hodisalar (tashvish, muvaffaqiyatsizlik, xatolar yoki aksincha, yaxshi yangiliklar, taxqirlanishlar, muvaffaqiyat va h.k) kuchli emotsiya uyg'otadi.

Boshqalar sekinroq, sovuqqonroq munosabat bildirishadi.

Sovuqqon odamlarni ichki emotsional xarakterga ega bo'lganlar bilan aralashtirib bo'lmaydi. U tashqi namoyon bo'lmasligi bilan ham muhimdir. Kuzatuvchan odam uni ayrim belgilariga (yuzning qizarishi, oqarishi, indamaslik, titrash va h.k) qarab sezishi mumkin.

2. Faollik (F+ yoki F- ko'rinishida belgilanadi).

Faollik — bu harakatga, reja yoki fikrni amalga oshirishga ehtiyojdir.

Ba'zi odamlar bekorchilikka toqat qila olmaydilar. Ularga nima bilandir mashg'ul bo'lish yoqadi. Ular tez qaror qabul qiladilar, qiyinchilikdan qo'rqmaydilar, ularni tushkunlikka tushirish qiyin. Ular haqida “eshikdan haydasang, teshikdan kiradi” deb gapiradilar. Lekin harakat qilishdan oldin uzoq o'ylaydigan, hatto harakat ularning kuchini qirqib qo'yadigan insonlar ham bor. Ular vaziyatni hal qilishdan ko'ra uni o'ylashga ko'p vaqt sarflaydilar. Lekin bu shunday odamlar albatta dangasa bo'lishadi, degani emas.

3. Birlamchilik va ikkilamchilik (B va I ko'rinishida belgilanadi.)

Bizning qarashlarimiz, hissiyot va maqsadlarimiz bizga uzoq yoki qisqa muddatli ta'sir o'tkazadi. Ba'zi odamlar uzoq vaqt boshdan kechirganlarining ta'sirida yuradilar, ular xuddi akkumulyatorga o'xshaydilar: zaryadga to'yib oladilaru, lekin uni sekin sarflaydilar. Ular, masalan, o'zlarini g'azabga solgan vaziyat taassurotini uzoq unuta olmaydilar. Xafa qilgan odamni uzoq vaqtgacha unutmaydilar, qadrli narsani yo'qotganda uzoq qayg'uradilar, muvaffaqiyat yoki baxtli hodisani eslaganda to'lqinlanib ketadilar.

Ularning kayfiyati aksariyat bir tekisda bo'ladi. Ular—ni kamdan-kam tushkun yoki ko'tarinki holatda ko'rish mumkin. Ular kamdan-kam achchiqlanishadi, lekin sabr kosolari to'lib-toshganda g'azablari dahshatli bo'ladi. Ular o'z odatlari, tamoyillariga sodiq bo'lishadi. Ular kamdan-kam o'zgarishadi, ularga biror fikrni o'qtirish qiyin. Ular alohida maqsadlarga erishish uchun ter to'kishlari mumkin. Ular sabr-toqatli va tirishqoq bo'lishadi. Bular ikkilamchi odamlardir.

Boshqa bir toifa odamlar, aksincha, boshlaridan kechirgan hodisalar, o'z hissiyotlari ta'sirida uzoq vaqt qolishmaydi. Ular suxbatda xissiyotlarini to'kib solishadi. Ular bugungi kun bilan yashashadi, “ikkilamchilar”- dan farqli ravishda o'tmish yoki kelajakka berilishmaydi. Shuning uchun ular yangi sharoitga oson moslashishadi. bunday odamlar “birlamchi” deb ataladi. Agar ular maqsadga tez erisholmasliklarini ko'rishsa, undan osongina voz kechib qo'ya qolishadi. Ular katta, lekin uzoq muddatli bo'lmagan intilishga qodir. Tirishqoq mehnatga toqatlari yo'q. Ular kutilmagan sarguzashtlarni yaxshi ko'rishadi, ikir-chikirlardan ijirg'anishadi.

— Emotsionallik (+yoki—), faollik (+yoki-), birlamchi va ikkilamchilikning turli birikmalari bo'yicha xarakterning sakkiz asosiy xususiyatini ko'rsatish mumkin.

- E + F — B — Asabiy.
- E + F — I — Sentimental.
- E + F + B — Juda faol, jo'shqin.
- E + F + I — Ehtirosli.
- E — F + B — Sangvinik.



- E — F + I — Flegmatik.
- E — F — B — Amorf yoki beg'am.
- E — F — I — Apatik.

Bular albatta “toza” tiplar bo'lib, voqelikda kam-dan-kam uchraydi. Lekin ularga mo'ljal qilib, aralash tiplarni osongina tasavvur qilish mumkin.

E + F — B — Asabiy.

Kuchli, tartibsiz emotsionallik: asabiy odam — “hozir”ning quli. U doimiy emas, shafqatsizlikka va gumonsirashga moyil. Lekin u tez murosaga keladi.

Uning aqli tiyrak, lekin uslubiy emas, impulsiv, bir tekis va doimiy bo'lmagan faollik mavjud.

Asabiy odam ta'sirchan, lekin emotsiyalari o'tkinchi bo'ladi. U faqat maqsadlari zaruriyat bilan mos kelgandagina ishlay oladi.

Kuchli va qo'zg'aluvchan, u har doim yangi va kuchli tuyg'ularni qidiradi. U uyda zerikadi, shuning uchun uydan tashqarida ko'plab turli do'stlarga ehtiyoj sezadi. U o'tmish bilan kam hisoblashadi va ayni paytda o'ziga ma'qul bo'lgan narsani qiladi va gapiradi. Shuning uchun u ko'proq yolg'on- chilikka moyil. U haqiqatni o'zining lahzalik kayfiyat va istaklariga bo'ysundiradi.

Badgumon, chunki boshqalar ham shunday deb hisoblaydi. O'zidan ko'ngli to'q, boshqalar ham shu tasavvurda bo'lishini yoqtiradi.

Uning guruhga ta'siri kuchsiz. Ish jarayonida uni doimiy bir qolipda ushlab turish kerak, nimani qanday qilish kerakligini ko'rsatib turish kerak, u bilan to'qnashishga borishdan qo'rqqanlik kerak, chunki u osongina murosaga keladi. Bir maromdagi ishni yoqtirmaydi.

E+ F - I — Sentimental.

Sentimental odam ham hissiyotga beriluvchan, lekin asabiy, o'z taassurotlaridan tez uzoqlashsa, sentimental o'z quvonch va tashvishlarini uzoq eslab yuradi va doim ularni qayta boshdan kechiraveradi.

Bu chuqur hayolparast va doimiy odamdir. U yolg'izlikni yoqtiradi, bitta yoki ikkita do'st bilan kifoyalanaadi.

Sentimentalning ikkilamchiligi o'zi bilan sodir bo'layotgan va unga aytilayotgan gaplarni chuqur boshdan kechirishiga, ko'ngliga yaqin olishiga sabab bo'ladi.

Kayfiyatidagi o'zgarishlar sekin, lekin chuqur. U vaziyatni sog'lom baholashga harakat qiladi. U o'tmishini yaxshi eslaydi va kelajak haqida o'ylaydi. O'z odatlariga sodiq, o'zgarishlarni yoqtirmaydi.

Sentimentalning kuchli emotsionalligi va aytilganlarni hisobga olib, u bilan ehtiyotkor bo'lish kerak. Qo'pol muomala uning tundlashishiga, srilmasligiga sabab bo'ladi. Jur'atsiz va no'noq, hadiksirovchi va nozikta'b bo'lganligidan o'ziga yumshoq va hayrixoh munosabatni talab qiladi. U bilan suhbat va



muomalada adolatli bo'lish kerak. Har doim u bilan hisoblashayotganlarini namoyish etib turish kerak. Uning odatlari va ishqibozliklariga qarshi bormaslik kerak.

$E + f + B$ — Jo'shqin va faol.

Birlamchiligi tufayli bu xarakter katta kuch, jasurlik, topqirlik va to'la erkinlik bilan ajralib turadi. Uning affektivligi ba'zan quturgan xarakterga ega bo'ladi. U impulsiv, ishqiboz odam, uning mustaqilligi ba'zan anarxiya bilan aralashib ketadi.

U xizmatga tayyor, boshqalarga hamdardlik bilan munosabatda bo'ladi va o'z simpatiyalarini yashirmaydi. Ochiq ko'ngil, lekin o'zgaruvchan, quvnoq va har doim yaxshi kayfiyatda yuradi. Yorqin, jamiyatning joni, hayolparast, lekin ba'zan qo'pol ham bo'ladi. Uni to'siqlar qo'rqit olmaydi, u o'z topqirligi tufayli ularni aylanib o'ta oladi. Maqtanchoq, hamma narsani bo'rgitirishni yaxshi ko'radi. Ishonuvchan, injiqemas, kek saqlamaydi.

U jamoa ishida bajonidil deb ishtirok etadi, nima buyurishsa shuni qiladi. U hatgo tanbehda ham simpatiya his qilishi kerak. Uni ko'pchilik oldida koyib va yerga urib bo'lmaydi, uzoq eslab yurmaydiyu, lekin o'sha paytda qattiq g'azablanib ketishi mumkin. U ishga g'ayrat bilan kirishishi mumkin, lekin doim uning qiziqishini qo'llab turish kerak. Bunday odamga uncha muhim bo'lmasa ham, lekin darrov bajariladigan ish topshirish kerak. Uning favqulodda yashovchanligidan foydalanish kerak, lekin uning chalg'ib ketishini xam unutmashlik kerak.

$E + F + I$ - Ehtirosli.

Bunday odamlar ishga butun ehtirosi bilan beriladilar. Tartibni yoqtirishadi. Reaksiyalari jur'atsiz. Agar jo'shqinliklari tez-tez va uzoq vaqt tiyib turilmagan bo'lsa portlamaydi. Aks holda ular adolatli g'azablarini ko'rsatishadi. Aqlari topqir va ishonchli. Muvaffaqiyatlarni tinch va kamtarona qabul qilishadi, o'z e'giquodlarini almashtirishni yoqtirishmaydi. Bunday odamni tavsiya etayotganda uning nuqtai nazari rahbariyatnikigato'g'ri kelishini tekshirib ko'rish kerak. Aks holda ziddiyat kelib chiqishi mumkin. Shuningdek ikkita ehtirosiga bir xil ishni topshirib bo'lmaydi, ular kelisholmasliklari aniq.

E — $F + B$ — Sangvinik.

Bu omilkor, ishbilarmon tip. U oson va tez moslashadi. Gapga ko'nadigan va optimist, epchil, korchalon. U oz qo'zg'aladi va birlamchi, shuning uchun xotirjam va jur'atli. Uning akli keng, umumlashtirishga moyil, lekin aniqlikni, asoslilik va ob'ektivlikni yaxshi ko'radi. Uning mulohazalari ravshan va har qanday muammo uchun ochiq. Topshirilgan ishga kagta mas'uliyat bilan yondashadi.

E — $F + I$ — Flegmatik.



Bu xarakterning eng muhim belgisi sovuqqonlik va uning oqibatidagi o'ta vazminlikdir.

Flegmatikning salomlashishi viqorli, sovuq va his-siyotlardan holi. U o'rtoqlashishga moyil emas, yolg'izlik ni ma'qul ko'radi.

Ko'p gapirmaydi, suhbatni asosiy masalani oydinlashtirishga buradi. Ba'zan ilhomi kelsa qo'pol hazil qiladi.

U o'ziga va yaqinlariga sodiq. Juda ilojsiz qolganda yolg'on gapirishi mumkin. Ishdatartibni yaxshi ko'radi va uni vazmin va bir maromda bajaradi. Pokizalikni yaxshi ko'radi, ba'zan bu odat maniyaga, pedantizmga aylanishi mumkin. O'ziga foydali bo'lsa jon-jaxdi bilan ishlashdan qo'rqmaydi. Akdi imillab ishlaydi, lekin ishonchli, chunki bu imillash hodisaning sababini bilish istagi bilan bog'liq. Flegmatikni faqat dalillar bilan ishontirish mumkin.

Undan, yaxshisi, ishni loyihalash va tayyorlash bosqichida foydalanish kerak. Bu bosqichda uning tashkilotchilik qobiliyatlari, vazmin va muvozanatliligi qo'l keladi.

E — f — B — Amorf

Amorf — inert, mo'rt. U buyurilganidan ortig'ini qilmaydi. Aqli topqir emas. U bugungi ishni ertaga qoldiradi. Uning muomalasi oddiy apiqlikka ham ega emas.

E — F — I — Apatik.

Apatik qilayotgan ishiga befarq. U aniqtartibni talab qiladigan kundalik ishni qoniqarli bajara olishga qobil.

Kayfiyati har doim bir tekis, yolg'izlikdan ma'lum darajada lazzatlanadi.

Bunday xarakterli shaxslar xizmatbaror emas va boshqalarga befarq.

Yuqorida tasvirlangan xarakterlar kam uchraydi. Bular toza tiplar. Haqiqatda ular har uchala xususiyatning ko'p yoki ozligiga qarab qo'shib ketadi. Bundan tashqari madaniy va axloqiy omillar xarakterning bu qirralariga sharoit va uning talablariga qarab yo kuchaytirib, yoxud susaytirib ta'sir ko'rsatadi.

Sheldonning konstitutsional farqlar psixologiyasi. Sheldon temperament farqlarini ajratish uchun tip emas, komponentni asos qilib oldi. U 4000 nafar kollej talabalarining yalang'och holda oldidan, yonidan va orqasidan olingan fotosuratlarini o'rganib chiqib, hamma uchun umumiy bo'lgan uchta variantni ajratdi.

Birinchisi umumiy sferik shakl, yumshoqlik, juda katta qorin, yelka va belda qalin yog' qatlami, yumaloqbosh, katta ichki organlar, shalviragan qo'l va oyoqlar, taraqqiy etmagan suyak va muskullar bilan ajralib turadi.

Ikkinchisi uchun keng yelka va ko'krak qafasi, muskullari yaxshi rivojlangan qo'l va oyoqlar, teri osti yog'ining minimal miqdori, og'ir, salmoqli kalla xosdir,

Uchinchisi ozg'in odam, cho'ziq yuzli, baland peshona, ingichka qo'l va oyoqlar, tor ko'krak qafasi va qorin, taraqqiy etmagan muskullar, teri osti yog' qatlamining yo'qligi, yaxshi rivojlangan nerv tizimi bilan ajralib turadi.

Shu belgilar asosida Sheldon gavda tuzilishining uchta birlamchi komponentini ajratdi va ularni mos ravishda: endomorf, mezomorf va ektomorf deb nomladi. Biologiyada o'sha davrdagi tassavurlarga ko'ra endodermadan ichki organlar, mezodermadan suyak, muskul, yurak, qon tomirlari, ektodermadan soch, tirnoq retseptor apparati, nerv tizimi va miya rivojlanadi, deb qaralgan.

Sheldonning ikkinchi yangiligi shu bo'ldiki, u alohida individda har bir komponentni miqdoriy baholab chiqdi. Buning uchun u 7 ball i baholash shkalasini qo'lladi (1 absolyut minimum, 7 absolyut maksimum ifodalanganlik tarzida). Shunday qilib, har bir individ gavda tuzilishi uchta raqamdan iborat bahoda aks etdi. Gavda tuzilishini bunday baholash tizimi samototiplashtirish deb nomlanadi. 3 raqamdan iborat ayni odam gavda tuzilishi komponentlarining namoyon bo'lish darajasi odam samototi-pi deb ataladi.

Masalan, 4-6-1 samototipli individ o'rtacha darajada endomorf, yuqori darajada mezomorf va ektomorfning butunlay yo'qligi, to'la endomorf 7-1-1 formulasi bilan, to'la mezomorf 1-7-1, to'la ektomorf, 1 – 1-7 formulasi bilan ifodalanadi.

Sheldon temperament komponentlarini aniqlash uchun shaxs yoki uning xarakterini aniqlovchi 650 ta sifatni ajratdi. Mukammal tahrirdan so'ng bu son 50 taga qisqardi.

Shundan so'ng Sheldon 33 ta odamni turli metodikalar, suhbat, anketalar, so'rovnomalalar, kasbiy faoliyat tahlili va xulqini kuzatish, agrofdagilar bilan o'zaro munosabatlari orqali o'rgandi. 50 sifatdan har birini 7 balli tizimda rang bo'yicha xisoblab, har bir individda uning namoyon bo'lish darajasini aniqladi.

Sheldon korrektyatsiya yordamida hamma sifatlar bo'yicha olingan baholarni solishtirib, har bir guruh ichida 0,6 va undan yuqori korrektsiya ijobiy koeffitsientini to'plagan uchta guruhni ajratdi.

Hamma guruhlar bo'yicha sifatlar 22 tani tashkil qildi. Sheldon aniqlangan guruhlar «temperamentning birlamchi komponent-lariga» to'g'ri keladi deb hisobladi va har bir guruhga visnerotoniya, samototoniya, serebrotoniya, deb nom berdi (vistserotoniya - ovqat hazm qilish organlari- ning funktsional ustunligi, samototoniya - harakat ap- paraging funktsional va anatomik ustunligi, serebro-toniya - oliy nerv markazi faoliyatining ustunligi).

I. Vistserotoniya	II. Somatotoniya	III. Serebrotoniya
1. Harakat va gavadani tutishda shalviragan	1. Harakat va gavadani tutishda o'ziga ishonch	1. Harakat va uning uslublarida sipolik, gavadani erkin tutmaslik



2. Maishii qulaylikni yaxshi ko'rish	2. Jismoniy mashqlar va sarguzashtlarni yaxshi ko'rish	2. Haddan tashqari fiziologik reaktivlik, tashqi ta'sirga hozirjavoblik
3. Reaksiyaaig susayganligi, sekinlash gamligi	3. Serg'ayratlik	3. Reaksiya tezligiing ortganligi
4 Ovqashi yaxshi ko'rish	4. Harakatga ehtiyoj va undan lazzatlanish	4. Intimlilikka moyillik
5. Ovqatlanish ehyojining ijtimoiy lashganligi	5. Hukmronlilikka intilish. xokimiyatga chanqoqlik	5. Haddan tashqari aqliy zo'riqish, diqqat kuchining ortganligi, xavotir.
6. Ovqat hazm qilishdan lazzatlanish	6. Tashkilotchilikka moyillik	6. Hissiyotni yashirish, emotsional sipolik
7. Muloyim muomalani yaxshi ko'rish	7. Harakat uslubning qat'iyiligi	7. Ko'z va yuz xarakatlarining notinchligi
8. Sotsiofiliya – ko'pchilik bilan bo'lishga intilish	8. Jangda jasurlik	8. Sotsiofobiya - yolg'izlikni yoqtirish
9. Hamma bilan xushmuomalalik	9. Musobaqada agressivlik,	9. Ijtimoiy munosabatlar o'rnatishda qiynalish
10. Maqtov va ma'qullashga chanqokdik	10. Psixologik his-tuyg'usizlik, emotsional	10. Yangi odatlarga o'rganish qiynchiligi, kuchsiz
11 .Odamlarga intilish	11 Klaustrofobiya - torlikdan qo'rqish	11 .Birovlarning' e'tiborini yo'qotishdan qo'rqishni agorafobiya
12. Hissiyotlar namoyon bo'lishining barqarorligi	12.Rahm-shafqatsipik va odobsizlik	12. Boshqa odamlarning o'ziga munosabatipi oldindan kura olmaslik
13. Sabrtoqatlilik	13. Baland ovoz	Past ovoz. shovqin uygotishdan qo'rqish
14. Betashvish lazzatlaish	14. Og'riqqa spartancha beparvolik	N.Og'riqqa haddan tashqari sezgirlik
15. Chuqur uyqu	15. Umumiy to'poloqchilik, baqiroqlik	15. Kam uyqu, surunkali toliqish
16. Irodasi sustlik	16. Tashqi ko'rinishning qarimsiqligi	16 Gashqi qiyofo va harakat uslublarining o'spirinlarcha

17. Muloqot va hissiyotni namoyon qilishda vistsero-toncha ekstroverziya	17. Muomalada ekstroverziya, emotsiya va hissiyotlarni yashirish,	17. Serebrotonik introverziya
18. Mastlik holatida dilkashlik va yumshoqlik	18. Mastlik holatida agrssivlik, qattiq turish	18. Alkogol ta'siriga chidamlilik
19. Og'ir damlarda odamlarga ehtiyoj	19. Og'ir damlarda harakatga inshlish	19. Og'ir damlarda yolg'izlikka intilish
20. Bolalikka va o'zaro oilaviy munosabatlarga	20. O'spirinlik maqsadlari va pazifa- lariga yo'nalish	20. Hayotning kechroq davrlariga yo'nalish

Sheldon shundan so'ng to'rt yil davomida yangi sifatlarni qidirdi va boshqa guruhxususiyatlari bilan yuqori ijobiy korrelyatsiya xususiyatlarini tekshirdi. Bu ma'lumotlarga u dastlabki ro'yxatdagi qandaydir sifatlar guruhi yorqin namoyon bo'lgan individlarni tasvirlash va taxdil qilish orqali erishdi.

Natijada har bir guruhning sifatlar ro'yxati 20 taga yetkazildi. Shunday qilib, temperamentning har bir komponenta 20 ta sifat bilan aniqlandi. Buning uchun har bir sifat 7 balli tizimda baholandi va barcha 20 ta sifatning o'rtacha arifmetik bahosi shu komponentning namoyon bo'lish darajasini anglatadi.

Hamma komponentlar (60 sifat) bo'yicha baholangan individ o'z temperament indeksini oldi.

To'la vistserotonikning indeksi 7—1 —I, somatotonikniki — 1—7— I, serebrotonikniki I — I —7 bo'ldi.

Nihoyat, Sheldon somatotip bilan temperament o'rta- sidagi aloqani aniqlashga urinib ko'rdi. Buning uchun u besh yil davomida 200 ta balog'atga yetgan erkakni tadqiq qilib, har bir individ uchun samogotip va temperament indeksini aniqaadi.

Oilaviy psixoterapiya qoidalari.

1. Er-xotinlik baxtini barbod qilishning eng qulay usuli

Bir vaqtlar Frantsiya imperatorn - buyuk Napoleon Bonapartning jiyani Napoleon III dunyodagi eng go'zal ayol, grafinya Mariya Yevgeniya Ignasiya Avgustinayi sevib qoldi va unga uylandi. Uning maslahatchilari bu qiz hech kimga ma'lum bo'lmagan ispan grafining qizi xolos deb uqtirishga o'rinishdi. Napoleon bu gaplarga «Xo'sh, nima bo'пти? Men o'zim sevgan va hurmat qilgan ayolni menga noma'lum ayoldan ustun ko'rdim» deb javob berdi.

Napoleon va uning xotinida hamma narsa: sog'liq, boylik, hokimiyat, shuhrat, go'zallik, o'zaro sidqidil muhabbat bor edi. Go'yoki ularning oilasidan ko'ra baxtli oila bo'lmasligi kerak edi. Ming afsuski, bu oilaning baxti ko'p o'tmasdan so'na boshladi. Napoleon Yevgeniyani o'z eriga nisbatan tirnoq orasidan kir qidirish odatidan mahrum qila olmadi.



Evgeniya shubhalar girdobiga berilib, rashk o'tida qovrilib, Napoleonga hatto davlat ishlari bilan shug'ullanishi uchun ham bir daqiqa yolg'iz qolishiga imkon bermay qo'ydi. U hatto uning maxsus ish yuritadigan xonasiga bostirib kirish, uning muzokaralarini barbod qilish, uni haqorat qilishgacha borib yetdi. Oxir-oqibat Napoleon yarim tunda yaxshi uydan chiqib ketib, eng yaqin do'sti bilan shahar ko'chalarini yolg'izlik ilinjida kezish odatini chiqardi.

Lev Tolstoy bilan xotini dunyoda eng baxtli yashashlari mumkin edi. Tolstoy boy-badavlat, mashhur yozuvchi edi. Asta-sekin u boylikdan nafratlanib, o'zi yozgan kitoblaridan uyala boshladi. U barcha boyligini dehqonlarga bo'lib berdi, yog'och kosada ovqatlanish, chipta kovush kiyish, o'z xonasini o'zi yig'ishtirishni odat qildi. Bularning hammasiga xotining boylikka o'chligi, pul, zeb-ziynatni yaxshi ko'rishi sabab bo'ldi. Xotini xatto Tolstoyning har bir nashr qilingan kitobi uchun gonorar talab qilardi, Tolstoy esa bundan nafratlanardi.

Oqibat, Tolstoy 82 yoshida sovuq oktyabrning qorli tunida uyidan chiqib ketdi va 11 kundan keyin kichkina temir yo'l stantsiyasida vafot etdi. Uning so'nggi vasiyati xotinini yoniga qo'ymasliklari haqidagi iltimosi bo'ldi. Xotini o'z umrining so'nggida, jon berayotib, qizlariga aytgani «Otangizning o'limiga men sababchi bo'ldim» degan so'zlar edi.

AQSh sobiq Prezidenti Avraam Linkolnning xotini Meri Todd butun umr erini egovlab keldi. Unga erining hali yurishi, hali o'tirishi, hali qulog'i, tizzasining egilishi va hokazolari yoqmas edi. Uning shallaqiligi butun kvartalga ayon edi. Uning ayrim aqilsizliklari hatto hozir ham odamlarni hayratga soladi.

Ehtimol o'quvchilar Napoleon, Tolstoy, Linkoln xotinlarining tirnoq orasidan kir qidirishlariga o'zlari sababchi bo'lgan bo'lsa kerak, deyishlari mumkin. Bo'lishi mumkin, lekin ularning mana shu harakatlari oila baxtini mustahkamlashga xizmat qildimi yoki uni yanada yomonlashtirdimi?

Birining tunda qochishni odat qilishiga, biriga qariganda uydan ketishiga, birini oylab uyga qaytmaslik bahonasini qidirishga majbur qildi.

Adabiyotlar:

1. Abramova.G.S. Vozrastnaya psixologiya: Uchebnoye posobiye dlya studentov vuzov.-M., "Izd-vo" 2001.- 621s
2. Vozrastnaya psixologiya: ot molodosti do starosti: Uchebnoye posobiye dlya studentov i prepodavateley ucheb.zaved M.V.Gamezo, V.S. Gerasimova, G.G.Gorelova, L.I.Orlova.M.,1999.-269s.
3. Gamezo A. «Atlas po psixologii». Moskva, Piter, 2001.
4. G'oziyev E. G'. Umumiy psixologiya. 1-2 tom. T., Fan, 2002.
5. G'oziyev E.G' Jabborov A. Faoliyat va hulq-atvor motivatsiyasi T-2003y
6. G'oziyev E.G'. Muomala psixologiyasi T-2001 y
7. G'oziyev E.G'.Ontogenez psixologiyasi.-T.: Noshir. 2010.
8. Davletshin M. G. Umumiy psixologiya. T., TDPU, 2002.
9. Davletshin M.G., Do'stmuxamedova Sh.A., Mavlonov M.M,To'ychiyeva S.M., «Yosh va pedagogik psixologiya». T. TDPU, 2004 .



10. Do'stmuammedova Sh.A., Z.T.Nishonova, S.X.Jalilova, Sh.T.Karimova, Sh.T.Alimbaeva Yosh davrlari va pedagogik psixologiya Toshkent Fan va texnologiyalar Markazining bosmaxonasi. 2013
11. Zimnyaya.I.A Pedagogicheskaya psixologiya: Uchebnik dlya vuzov. –M., “Izd-vo” 2002.-384s
12. Ivanov I., Zufarova M. Umumiy psixologiya. z.FMJ., 2008.
13. Krisko V.G. Psixologiya i pedagogika M.: Xarvest – AST 2000
- Martinskovoy T.D. Detskaya prakticheskaya psixologiya Pod.red.-M., “Izd-vo” 2000.-255s.
14. Muratova Sh.N. O'smir yoshdagi o'g'il bolalarni oilaviy hayotga tayyorlashning ijtimoliy jihatlari. O'zMU xabarlari, {1/2/1}ISSN: 2181-7324, 2020, 6-son, - B. 91-95, [19.00.00 №10]
15. Muratova Sh.N. O'g'il bolalarni oilaviy hayotga tayyorlash muammosining ilmiy-nazariy asoslari va uning o'rganilganlik holati. O'zMU xabarlari, {1/2/1}ISSN: 2181-7324, 9-son, - B. 82-86, [19.00.00 №10]
16. Muratova Sh.N. O'taning farzandlar tarbiyasidagi o'rmi. Ta'lim, fan va innovasiya, ilmiy axborotnoma. 2022, 5-son, - B. 82-86, [19.00.00 №10]
17. O'g'il bolalarni oilaviy hayotga tayyorlashning ijtimoiy-psixologik jihatlari. SamDU ilmiy axborotnoma. ISSN: 2091-54-46, 2020, 6-son (124), - B. 100-105. [19.00.00 №10]
18. Muratova Sh.N. Nikoh oldi omillarining yigitlarni oilaviy hayotga tayyorlashdagi ijtimoiy-psixologik imkoniyatlari. BuxDU psixologiya ilmiy jurnal. ISSN 2181-5291, 2021, 3-son, - B. 84-90. [19.00.00 №10]
19. Muratova Sh.N. Oilada o'g'il bolalarni pedagogik va psixologik tarbiyasida nazariy qarashlar tahlili. NamDU ilmiy axborotnomasi. ISN: 2181, 2019, 6-con, - B. 409-415, [19.00.00 №10]
20. Muratova Sh.N. Problems of youth for family life. // International Journal of Psychosocial Rehabilitation, /ISSN: 1475-7192, Volume 24, № 10, 2020, <https://www.psychosocial.com/> p. 282-291.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada Sheldonning konstitutsional farqlar psixologiyasi va Xeymans - Lesenn tipologiyasini kengroq yoritib berishga qaratilgan bo'lib, sovuqqon odamlarni ichki emotsional xarakterga ega bo'lganlar bilan aralastirib bo'lmasligi va u tashqi tomondan namoyon bo'lmasligi bilan ham muhimligi haqida ham tushunchalar berilgan. Shu bilan birgalikda kuzatuvchan odam uni ayrim belgilariga (yuzning qizarishi, oqarishi, indamaslik, titrash va h.k) qarab sezishi mumkinligi, Sheldon temperament farqlarini ajratish uchun tip emas, komponentni asos qilib oldi. Natijada har bir guruhning sifatlar ro'yxati 20 taga yetkazildi. Shunday qilib, temperamentning har bir komponenta 20 ta sifat bilan aniqlandi. Buning uchun har bir sifat 7 balli tizimda baholandi va barcha 20 ta sifatning o'rtacha arifmetik bahosi shu komponentning namoyon bo'lish darajasini anglatadi.

РЕЗЮМЕ

В данной статье основное внимание уделяется психологии конституциональных различий Шелдона и типологии Хейманса-Лесенна в более широком плане, а также указывается на важность не путать холодных людей с теми, у кого есть внутренний эмоциональный характер и он не проявляется внешне. В то же время наблюдатель может воспринять его по некоторым его симптомам (покраснение лица, бледность, молчание, дрожь и т. д.), Шелдон использовал в качестве основы для различения различий темперамента именно компонент, а не тип. В результате список прилагательных каждой группы достиг 20. Таким образом, каждая составляющая темперамента определялась 20 качествами. Для этого каждое качество оценивалось по 7-балльной шкале, а среднее арифметическое значение всех 20 качеств представляет собой уровень выраженности данного компонента.

SUMMARY

This article focuses on the psychology of Sheldon's constitutional differences and the Heymans-Lesenne typology more broadly, and points out the importance of not confusing cold people with those who have an internal emotional character and do not show it outwardly. While the observer may perceive him by some of his symptoms (redness of the face, pallor, silence, trembling, etc.), Sheldon used component rather than type as the basis for distinguishing differences in temperament. As a result, the list of adjectives for each group reached 20. Thus, each component of temperament was determined by 20 qualities. To do this, each quality was assessed on a 7-point scale, and the arithmetic mean of all 20 qualities represents the level of expression of this component.